

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025
noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 359 sahifa.
2025-yil, noyabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHINING UMUMIY GLOBAL TENDENSIYALARI.....	12
Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUV VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	48
Xodjimov Xamidullo Mamirjonovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
Axatova Shahnoza	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH	63
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
Хошимова Камилла Навфал қизи	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	79
Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
Файзиёв Умуркул Шухратович	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI	97
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
Ўролова Севара Бехзод қизи	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
Narziyev Hayotjon Azamatovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudgetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI	120
Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich	
YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI.....	126
Xalikov S. X.	



TURISTIK KORXONALARDA BREND CAPITALINI BAHOLASH	131
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI	141
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	148
Алимова Дилафруз	
O'ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	153
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SOLIQ BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	161
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭНЕРГЕТИКИ	165
Аллаева Г.Ж.	
THE IMPORTANCE OF STRESS TESTING AND ITS IMPLEMENTATION IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	169
Mamatova Sevara	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARI SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION KO'RSATKICHLARI	175
Nabiyev G'ulom Abdisalomovich	
IJTIMOİY SOHA INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISHNING XORIY TAJRIBALARI	185
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
YASHIL BANK MAHSULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	189
Mahmudov Ulug'bek Davronovich	
KICHIK BIZNESDA XUSUSIY VA UMUMIY AXBOROT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI	193
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	197
Mamatkulova Nadira Maxkamovna	
JAHON AMALIYOTIDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI	203
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ МАЛОГО БИЗНЕСА КАК ФАКТОР ПЕРЕХОДА К “ЗЕЛЁНОЙ” ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	210
Бозорова Озода Рахимовна	
ТЕМИРБЕТОН КО'РРИКЛАРДАГИ BURDALANGIN BETONDAN OLINGAN CHAQIQ TOSHNI KOMPLEKS TADQIQOT QILISH	222
Salixanov Saidxon Salixanovich, Kenjayev Temurbek Olimjonovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI ANIQLASH USULLARI VA SOF FOYDA KO'RSATKICHIDA AKS ETISH YO'LLARI	226
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
MAMLAKATIMIZ BANKLARIDA FOIZ RISKILARI MUAMMOLARI VA ILMIY-TAHLILI	230
Isakov.J.Ya	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORTGA YO'NALTIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI VA BAHOLASH MEZONLARI	238
Faxriddinov Bahriddin	



TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY VA KIMYOVIY TOLALARNING IQTISODIY AFZALLIKLARI	243
Raximov Furqat Jalolovich	
BUXORO VILOYATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'I RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYASI.....	249
Rahmonov Xurshid Xayriddinovich, Atoyeva Mehriqo Ilhom qizi	
KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA UNI YURITISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	254
M.I.Murodova	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI AHOLI DAROMADLARINI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI.....	258
Uzoqov Suhrobjon Do'smat o'g'li	
INNOVATSION VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA LOGISTIK XIZMATLAR KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI TAHLILI.....	264
Xalimov Javlonbek Shaxriyovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQLARNI UNDIRISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI	271
Muxammadov Nodir Karimovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA EKSPORTBOP MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH	277
Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich	
IQTISODIYOT VA TA'LIM BOSHQARUVI: O'ZBEKISTONDA TA'LIM BRENDINGI UCHUN IQTISODIY JIHATLAR.....	282
Dilfuza Shokirova	
OLIY TA'LIM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	291
Raximjonova Shohsanam Baxodirovna	
O'ZBEKISTON BANKLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI INSON KAPITALI RIVOJI BILAN UYG'UNLASHTIRISH: INSTITUTSIONAL YONDASHUV.....	295
Xushvaqto'v Nodirbek Nomoz o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MOLIYAVIY STRESS-TEST TIZIMINI YARATISH METODOLOGIYASI	299
Zaynutdinov Ismoil Samariddin o'g'li	
HOZIRGI SHAROITDA BANK FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI	303
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
ENSURING SECURITY IN THE DIGITAL WORLD: HOW THE INSURANCE INDUSTRY CAN COUNTER CYBERATTACKS	308
D.D. Omonova	
JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISH JARAYONIDA BYUDJET-SOLIQ SIYOSATINI ISLOH QILISH MASALALARI	314
Hojiakbar Zaynabidinov	
SILINDRSIMON KAMERADA QATLAMLI CHIGITLAR AYLANMA HARAKATINING TAHLILI.....	319
No'monov Mirjalol Abdumalik o'g'li	
IPAKCHILIK KLASSTERLARI ASOSIDA TARMOQNI O'RTA MUDDATLI RIVOJLAN TIRISH STRATEGIYASI.....	325
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	332
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM IQTISODIYOTINING RAQAMLI MARKETING ORQALI RIVOJLANISH YO'LLARI.....	335
Egamberdiyev Muzaffar	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ РЕШЕНИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	339
Иминов Акбаржон Одилжонович	



IQTISODIY TIZIM VA INSON QADRIYATI: KAPITALIZM VA GUMANIZM O'RTASIDA	345
Raxmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH VA INVESTITSİYALAR JALB ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	350
Yusupov Muxiddin Soatovich	



O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH VA INVESTITSİYALAR JALB ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Yusupov Muxiddin Soatovich

Oriental universiteti professori v.b., PhD

Email: 1969msyusupov@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining tarmoqlarida qulay investitsiya muhitini shakllantirish va investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmlari tadqiq etilgan. Jumladan, tarmoqlarda investitsion jozibadorlikni yaxshilash, real sektorlarga investitsiyalarni jalb etish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish omillariga asosiy e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya; ishlab chiqarish; real sektor; investitsion jozibadorlik; qulay investitsiya muhiti; imtiyozlar va kafolatlar; investitsiya jalb etish manbalari; xorijiy investitsiyalar; tijorat banklari; aholi mablag'lari; korxonalar mablag'lari; markazlashgan investitsiyalar.

Abstract. This article examines mechanisms for creating a favorable investment climate in the economic sectors of the Republic of Uzbekistan and improving the efficiency of investment. Specifically, it focuses on factors that enhance the investment attractiveness of sectors, attract investment to the real sector of the economy, and improve the efficiency of its use.

Keywords: investment; production; real sector; investment attractiveness; favorable investment climate; incentives and guarantees; investment sources; foreign investment; commercial banks; household funds; enterprise funds; centralized investment.

Аннотация. В статье рассматриваются механизмы создания благоприятного инвестиционного климата в отраслях экономики Республики Узбекистан и повышения эффективности использования инвестиций. В частности, основное внимание уделяется факторам повышения инвестиционной привлекательности отраслей, привлечения инвестиций в реальный сектор экономики и повышения эффективности их использования.

Ключевые слова: инвестиции; производство; реальный сектор; инвестиционная привлекательность; благоприятный инвестиционный климат; льготы и гарантии; источники привлечения инвестиций; иностранные инвестиции; коммерческие банки; средства населения; средства предприятий; централизованные инвестиции.

KIRISH

Keyingi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotining real tarmoqlarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash tadbirlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu munosabat bilan iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash borasidagi ilg'or mamlakatlar tajribasini o'rganish va uni amalda qo'llash, resurs hamda energiyani tejaydigan zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish, "Yashil iqtisodiyot"ni keng rivojlantirish asosida iqtisodiyot tarmoqlari ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish masalalari hal qiluvchi ahamiyat kasb etib bormoqda. Bu ulkan tadbirlarni amalga oshirish uchun tarmoqqa ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etish ahamiyati ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2025-yilning 20-avgustida tadbirkorlar bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan uchrashuvdagi nutqida ta'kidlab o'tganlaridek: "O'tgan sakkiz yilda qattiq mehnat va mashaqqatlar bilan iqtisodiyotimizning ko'plab tarmoqlarini yo'qdan bor qildik. E'tibor bering, bu davrda turli sohalariga 230 milliard dollar investitsiya kirib keldi, shundan 120 milliarddan ortig'i — xorijiy sarmoya" [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-iyundagi "Mamlakatimizga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-97-son¹ Farmoni, 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son¹ Farmoni, 2025-yil

1 <https://lex.uz/en/docs/-7594188>



19-sentabrda "O'zbekiston Respublikasi milliy investitsiya jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-son² qaror, 2022-yil 28-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2023 — 2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-459-son³ qaror hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 22-iyulda "Investitsiya loyihalarini nazorat va monitoring qilish sohasida axborot tizimini joriy etish va undan foydalanish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 616-son⁴ qarorida respublika iqtisodiyoti tarmoqlarini jadal rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va modernizatsiya qilish, sanoat, xizmat ko'rsatish hamda qishloq xo'jaligi sohalariga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etishga yo'naltirilgan investitsiya jarayonlarini jadallashtirish va hududlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish masalalari o'z aksini topgan.

Shu munosabat bilan iqtisodiyot tarmoqlarida qulay investitsiya muhitini shakllantirish va investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish tizimini chuqur o'rganish asosida ularni takomillashtirishga oid ilmiy asoslangan tavsiyalar va takliflar ishlab chiqish shu kunning dolzarb masalalaridan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyot tarmoqlarida qulay investitsiya muhitini shakllantirish va investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'nalishlarida nazariy tadqiqotlar olib borgan xorijlik va milliy iqtisodchi olimlar jumlasiga Zvi Bodie, Alex Kane, Ajan J. Markus, Bogatin Yu. V., Shvandar V. A., Butayev J. I., Qosimov M. S., Zaynalov J. R., Alieva S. S., Ruzibaeva N. X., Zoyirov I. S., Asomxodjayeva Sh. Sh., Yunusova S. B., Ochilov B. B., Hoshimov J. R., Butayev J. I., Almatova D., Rajabov N., Mustafaqulov Sh. I., G'ozibekov D. G', Karimov N. G', Dodiev F. O', Yusupov M. S., Davlyatova G. M., Norsafarov B., Azimova F., Yo'ldosheva M., Yo'ldosheva M. va boshqalarni [2; 3; 4; 5; 6; 7; 8; 9; 10; 11; 12; 13; 17; 18; 19; 20] kiritish mumkin.

Zvi Bodie, Alex Kane va Ajan J. Markusning ta'rif berishicha: "Investitsiyalar — bu kelajakda foyda olish maqsadida sarflangan joriy majburiyatlarni, ya'ni pul yoki boshqa resurslarni anglatadi" [2].

Yu. V. Bogatin va V. A. Shvandarlarining fikriga ko'ra: "Real investitsiya — yer va uskunalar kabi moddiy kapitalni sotib olish, ulardan ishlab chiqarish jarayonida foydalanish va maksimal foyda olishni nazarda tutadi" [3].

M. S. Qosimovning ta'rifiga ko'ra: "Keng ma'noda investitsiya — subyektning vaqtinchalik iste'molini cheklab, kelgusida foydani ko'paytirish uchun qilinadigan xarajatlar va harakatlarni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, pul va pul bo'lmagan jamg'armalarni kapitalga (jihozlar, ko'chmas mulk, moliyaviy va boshqa aktivlarga) aylantirishdir" [5].

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga milliy va xorijiy investitsiyalarning erkin kirib kelishi bo'yicha mavjud shart-sharoitlar hamda investitsiyalar samaradorligini ta'minlash avvalo respublikada shakllangan investitsiya muhitiga bog'liq. Investitsiya muhiti qanchalik qulay bo'lsa, investorning tadbirkorlik tavakkali shunchalik past bo'ladi va bu investorlarning kirib kelish faolligini oshiradi. Aksincha, investitsiya muhiti noqulay bo'lsa, tavakkal darajasi yuqori bo'ladi, bu esa investitsiya qabul qiluvchi tomon sarf-xarajatlarning o'sishiga olib keladi. Investitsiya muhitining holati nafaqat investor uchun, balki investitsiya qabul qiluvchi uchun ham muhimdir.

Sh. I. Mustafaqulov fikricha: "Hozirda jahonda jadal sur'atlarda kengayib borayotgan investitsiya jarayonlariga muvofiq investitsion muhit jozibadorligi va salohiyatini baholash, ularga ishlab chiqaruvchi kuchlarning oqilona joylashuvi ta'siri, hududlar o'rtasida vujudga kelayotgan tabiiy-demografik, ma'muriy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy tafovutlarni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash, balanslashgan hududiy investitsion siyosatni shakllantirish, investitsion faollikni ta'minlash orqali milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning ilmiy-metodologik asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda" [11].

N. Rajabovning ta'rif berishicha: "Investitsion muhit jozibadorligi — mamlakatga investitsiyalarning oqimini belgilovchi, ta'minlovchi, kafolatlovchi va investitsiya faolligi bilan baholanadigan ob'yektiv iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy asoslar, vositalar, imkoniyatlar hamda cheklovlarining yig'indisidir" [10].

Jixarevich B. S., Limonov L. E. va Junda N. B.larning fikricha, investitsion jozibadorlik sarmoyani qo'yishdan olinadigan tushum darajasi orqali aniqlanadi [22].

Dj. Douns va G. Elliotning ta'kidlashicha: "Investitsion muhit — investitsiyalar samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, moliyaviy va boshqa sharoitlardir" [20].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Iqtisodiyot tarmoqlarida qulay investitsiya muhitini shakllantirish va investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan xalqaro tashkilotlar ekspertlari, xorijiy va milliy

2 <https://lex.uz/docs/-6600413>

3 <https://lex.uz/docs/-7736676>

4 <https://lex.uz/uz/docs/-6329448>



olimlarning ilmiy ishlari mazkur tadqiqotning nazariy-uslubiy asoslarini tashkil etadi. Tadqiqotda abstrakt va analitik mushohada, normativ va pozitiv tahlil, qiyosiy va omilli tahlil hamda statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan. Maqolani tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi va O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy iqtisodiyotda iqtisodiy resurslar unumdorligi va tejamkorligini oshirish, qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, iqtisodiyotni texnik-texnologik jihatdan yangilash orqali modernizatsiya qilish, investitsion jarayonlarni raqobatbardosh, yuqori texnologik bilimlar iqtisodiyotiga yo'naltirish asosida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha ilmiy izlanishlarni yanada chuqurlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida keyingi yillarda bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni jalb etish, yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish, mahsulot turlarini ko'paytirish va sifatini yaxshilash, mavjud quvvatlardan yanada samarali foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida 2020–2024-yillarda asosiy kapitalga kiritilgan jami investitsiyalar qiymati 210,2 trln so'mdan 493,7 trln so'mgacha yoki 134,8 %ga oshgan. Aholi jon boshiga nisbatan esa 6 140,3 ming so'mdan 13 652,7 ming so'mgacha yoki 122,3 %ga ko'tarilgan. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 36,8 %dan 33,0 %ga tushgan, ya'ni 3,8 foiz punktga qisqargan. Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlari dinamikasiga qaraydigan bo'lsak, 2020-yildan tashqari barcha yillarda (2021–2024-yillar), ayniqsa 2023-yilda 33,4 % va 2024-yilda 27,6 % o'sish kuzatilgan (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyar faoliyatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari⁵

Ko'rsatkichlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2024-y. 2020-y.ga nis. %
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, trln. so'm	210,2	239,6	226,6	356,1	493,7	234,8
Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, ming so'm / kishi	6 140,3	6 861,0	7 468,6	9 778,8	13 652,7	222,3
Asosiy kapitalga investitsiyalarni o'sish sur'atlari dinamikasi, o'tgan yillarga nisbatan % da	95,6	102,9	100,2	133,4	127,6	+ 32,0 f.p.
Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning YalMdagi ulushi, % da	31,5	29,2	26,7	29,6	34,9	+ 3,4 f.p.

Oxirgi besh yilga nazar tashlasak, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilayotgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi kamayib borayotganini ko'rish mumkin. 2024-yilning yanvar–dekabr oylarida jami investitsiyalar hajmida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 2023-yilga nisbatan 9,4 foiz punktga kamayib, 10,5 %ni yoki 51,9 trln so'mni tashkil etdi. Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 441,8 trln so'm yoki jami investitsiyalarning 89,5 %i o'zlashtirilib, 2020-yilga nisbatan 9,1 foiz punktga ko'paydi.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning eng katta qismi mashinalar va uskunalarga (2024-yilda 46,9 %i), shuningdek qurilish-montaj ishlariga (2024-yilda 43,1 %i) to'g'ri kelmoqda (2-jadval).

5 <https://lex.uz/docs/-4432862>

2-jadval. O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi⁶

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni manbalari	2020	2021	2022	2023	2024
Moliyalashtirish manbalari bo'yicha:					
Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan, %da	19,9	19,2	15,7	14,0	10,5
Markazlashmagan moliyalash-tirish manbalari hisobidan, %da	80,1	80,8	84,3	86,0	89,5
Texnologik tarkibi bo'yicha:					
Mashina, uskuna va inventarlar	49,5	47,5	43,2	46,0	46,9
Qurilish-montaj ishlari	43,4	44,5	49,2	46,1	43,1
Boshqa xarajatlar	7,1	8,0	7,6	7,9	10,0

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati katta. Buning afzalliklari sifatida quyidagilarni keltirish o'rinni:

- birinchidan, xorijiy investitsiyalar ko'magida korxonalarga zamonaviy texnik va texnologiyalar joriy etilib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanadi;
- ikkinchidan, import o'rni bosuvchi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirish orqali aholining turmush darajasini oshirish imkoniyati yaratiladi;
- uchinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda iqtisodiyot tarmoqlari ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholining ish bilan ta'minlanishiga ko'maklashiladi;
- to'rtinchidan, korxonalarning eskirgan ishlab chiqarish quvvatlari va moddiy-texnik bazasi yangilanadi hamda texnik qayta qurollanadi;
- beshinchidan, tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalar barpo etiladi.

Keyingi yillarda respublikamizda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi hamda salmog'i oshib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yanvar–dekabr oylarida jami 34,9 mlrd dollar xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilgan bo'lsa, ulardan yangi asosiy fondlarni yaratishga qaratilgan asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar 26,4 mlrd dollar yoki 333,8 trln so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 52,1 %ga o'sdi. Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 67,6 %ni tashkil etdi [24].

O'z navbatida, 2024-yilda jalb etilgan 333,8 trln so'mlik xorijiy investitsiya va kreditlarning 45,1 %ini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, 7,1 %ini O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar va 47,8 %ini boshqa turdagi xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil etgan (3-jadval).

3-jadval. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi (2024-yilning yanvar-dekabr oylarida)⁷

Xorijiy investitsiya va kreditlar	Jami	Shu jumladan:		
		to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar	boshqa turdagi xorijiy investitsiya va kreditlar
Qiymati, trln. so'm	333,8	150,5	23,6	159,7
Jamiga nisb., %da	100	45,1	7,1	47,8

6 Manba: O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2024-yil yanvar-dekabr. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi. Toshkent-2025. -114 b.

7 Manba: O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2024-yil yanvar-dekabr. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi. Toshkent-2025. -114 b.

Xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar jamiga nisbatan 51,9 %ni va mos ravishda xorijiy kreditlar 48,9 %ni tashkil qilgan. Tadqiqotlarga ko'ra, iqtisodiyot tarmoqlariga ichki va xorijiy investitsiyalarni jalb etishda tarmoqning investitsion jozibadorligi hamda qulay investitsion muhitni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyot tarmoqlarining investitsion jozibadorligini belgilab beruvchi asosiy elementlar sifatida quyidagilarni belgilash mumkin: tarmoqlarning rivojlanish sur'atlari va istiqbollari; tarmoqda ishlab chiqarishning o'rtacha rentabellik darajasi; tarmoqlarga xos bo'lgan investitsiya tavakkalchiligi xatarlari; mamlakat qonunchiligida iqtisodiyot tarmoqlariga kiritiladigan investitsiyalarga berilgan imtiyozlar va kafolatlar tizimi; hududlarning ishlab chiqarish-resurs salohiyati, infratuzilmalari hamda muhandislik va axborot-kommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanish darajasi; hududlarning demografik xususiyatlari va investitsion faoliyat uchun xavfsizlik darajasi va boshqalar.

Mamlakat qonunchiligida mazkur tarmoqqa kiritiladigan investitsiyalarga berilgan imtiyozlar va kafolatlar tizimi investorlarni rag'batlantiruvchi eng muhim omillardan hisoblanadi. Bu turdagi imtiyozlar va kafolatlar tizimiga quyidagilarni kiritish mumkin: investorlar mol-mulkinging daxlsizligi hamda olingan daromadlarni (foydani) erkin tasarruf etish huquqlarining davlat tomonidan kafolatlanishi; soliq va bojxona imtiyozlari; adolatli raqobatni ta'minlash va monopoliyaga qarshi choralarni qo'llash; imtiyozli kredit hamda narx belgilash siyosatini o'tkazish; davlat investitsiya dasturiga kiritilgan markazlashgan investitsiya loyihalarini jalb etishga hukumat kafolatlarini berish va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida xorijiy investorlar uchun bir qator soliq, bojxona va kredit imtiyozlari ko'zda tutilgan. Masalan, Soliq kodeksiga binoan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilgan holda tashkil etilgan va tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslarga (qonun hujjatlari bilan tasdiqlangan ro'yxatdagi iqtisodiyot tarmoqlarida) yer solig'i, mulk solig'i va suvdan foydalanish solig'idan ozod qilish shaklidagi soliq imtiyozlari beriladi. Ular investitsiyalar miqdoriga qarab o'zgaradi: 300 000 AQSh dollaridan 3 mln AQSh dollarigacha – 3 yil muddatga; 3 million dollardan ortiq 10 million dollargacha – 5 yil muddatga; 10 million AQSh dollaridan ortiq – 7 yil muddatga. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxona soliq qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa soliq imtiyozlaridan foydalanish huquqiga ega.


Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, investitsiya kiritilayotgan hududning investitsion jozibadorligini baholash quyidagi asosiy elementlar bo'yicha amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Hududning umumiy iqtisodiy rivojlanish darajasi, ya'ni hududning mamlakat yalpi ichki mahsulotini yaratishdagi ulushi; hududda aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti qiymati; keyingi bir necha yilda hududga kiritilgan kapital quyilmalar hajmi va boshqalar hisobga olinadi. Hududning ishlab chiqarish va resurs salohiyati darajasi, jumladan yer va suv resurslarining hajmi va foydalanish shartlari; mavjud moddiy xomashyo va energetik resurslarning aniqlangan turlari va zaxiralari hajmi, joylashuvi hamda foydalanish qulayligi; hududda asosiy mahalliy qurilish materiallarini ishlab chiqarish hajmlari; hududda asosiy energetik resurslarni ishlab chiqarish hajmi; mavjud mehnat resurslari hajmi, malakasi va aholi zichligi e'tiborga olinadi.

Hududda ishlab chiqarish va bozor infratuzilmalarining rivojlanish darajasi ham muhimdir. Hududda muhandislik-kommunikatsiya tizimlarining rivojlanish holati; asosiy xomashyo materiallari va energetik resurslarni yetkazib beruvchi bozorlarning mavjudligi; temir yo'l tarmoqlari va qattiq qoplamali avtomobil yo'llarining zichligi (har 100 kv km.ga); hududda tovar va xomashyo birjalari, brokerlik va ko'chmas mulk agentliklarining soni hamda xizmat ko'rsatish darajasi; bank, moliya, audit, sug'urta va konsalting muassasalarining soni va rivojlanish darajasi; aloqa, transport va boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanish darajasi baholanadi.

Hududning demografik xususiyatlari ham investitsion jozibadorlik mezonlaridan biri bo'lib, hududdagi jami aholining ishlab chiqarishda band bo'lgan qismi salmog'i; aholining hududiy joylashuvi va zichligi; mehnatga yaroqli aholining o'rtacha yoshi hamda malaka darajasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Hududning investitsion faoliyat uchun xavfsizlik darajasi ham baholanadi. Bunda hududning tabiiy ofatlar va zilzila o'choqlaridan xoliligi; tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlarning qulaylik darajasi; hududda iqtisodiy jinoyatchilik va korrupsiya holatlarining rivojlanish darajasi; keyingi yillarda qurilishi oxiriga yetkazilmagan kapital qurilishlar salmog'i; hududning urushlar, turli g'alayonlar va ekstremistik kuchlardan xoliligi; hududda ijtimoiy tanglik holatlarining mavjud emasligi kabi jihatlari inobatga olinadi.

Iqtisodiyot tarmoqlariga kiritiladigan investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda tarmoqqa xos bo'lgan shart-sharoitlar va elementlarini quyidagicha turkumlash mumkin (1-rasm).



1-rasm. Iqtisodiyotning agrar tarmog'i investitsion jozibadorligini belgilab beruvchi asosiy elementlar⁸

Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijalariga ko'ra, iqtisodiyot tarmoqlarining ichki va xorijiy investorlar uchun jozibadorligini oshirish jarayonida bir qator omillarni bosqichma-bosqich takomillashtirish talab etiladi. Birinchidan, mahalliy hokimiyat va davlat boshqaruvi organlarining biznesga oid tartib-taomillarni yanada soddalashtirishga doir islohotlar davom ettirilishi maqsadga muvofiqdir. The Heritage Foundation fondi tomonidan e'lon qilingan "Biznes erkinligi" reytingida O'zbekiston 2025-yilda 100 ballik shkalada 58 ball bilan 184 mamlakat ichida 100-o'rinni qayd etdi. Fondning web-saytida qayd etilishicha, "O'zbekiston raqobatbardosh bozor iqtisodiyotini qurish uchun muhim islohotlarni amalga oshirdi, iqtisodiy erkinlikni rag'batlantiruvchi siyosatni qabul qildi va ochiqlik hamda modernizatsiyani kuchaytirdi. Institutsional zaifliklar siyosiy va boshqa asosiy erkinliklarni cheklashda davom etmoqda, ammo ijobiy o'zgarishlar ildiz otmoqda. Biznesni boshlash jarayoni soddalashtirildi. Zamonaviy mehnat bozori rivojlanishda davom etmoqda, ammo norasmiy sektorda bandlik sezilarli darajada saqlanib qolmoqda. Doimiy inflyatsiya bosimiga qaramay, pul-kredit barqarorligi nisbatan barqaror" [25]. Ushbu baholashlar kelgusida tartibga solish mexanizmlarini yanada uyg'unlashtirish orqali iqtisodiy erkinlikni oshirish imkoniyatlari mavjud ekanini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, tadbirkorlarimizning xalqaro miqyosda biznes yuritish ko'nikmalarini mustahkamlash, investitsion jarayonlarda zamonaviy yondashuvlarni keng qo'llash va texnik-iqtisodiy asosnomalarni ishlab chiqish bo'yicha malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qiluvchi tizimni bosqichma-bosqich kengaytirish istiqbolidir. Hududlarda investitsiya faoliyatini yanada samarali tashkil etish, xorijdan istiqbolli investorlarni jalb qilish jarayonida zarur professional kompetensiyalarni shakllantirish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Uchinchidan, mahalliy hokimliklar tomonidan xorijiy investorlarni hududlarning investitsion salohiyati to'g'risida batafsil va tizimli ma'lumotlar bilan ta'minlashni kuchaytirish, shuningdek loyihalar tashabbuskorlarining moliyaviy-iqtisodiy holatini chuqur tahlil qilish jarayonlarini metodik jihatdan takomillashtirish investitsiya oqimini yanada faollashtirishi kutiladi.

To'rtinchidan, investitsion loyihalarni moliyalashtirishda tijorat banklari kreditlari bo'yicha qulayroq sharoitlarni kengaytirish, kredit muddatlari va garov talablarini optimallashtirish hamda valyuta risklarini yumshatish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar kelgusida tadbirkorlar uchun yanada barqaror moliyaviy imkoniyatlarni yaratadi.

Beshinchidan, investitsiya infratuzilmalarini rivojlantirish jarayonida elektr energiyasi, tabiiy gaz va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish sifatini yaxshilash bo'yicha izchil choralar tatbiq etilishi yangi korxonalar uchun qulay ish sharoitlarini ta'minlab, loyihalarning amalga oshirish sur'atlarini tezlashtiradi.

Oltinchidan, ishlab chiqarish korxonalarida asbob-uskunalar va texnologik vositalarni modernizatsiya qilish bo'yicha yo'l xaritalarining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi mahsulot sifatining xalqaro standartlarga moslashuvini ta'minlab, raqobatbardoshlikni kuchaytirishi prognoz qilinadi.

Yettinchidan, mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "qayerda qonun ustuvor bo'lsa, o'sha yerda biznes rivojlanadi, investitsiya muhiti jozibador bo'ladi. To'g'ri, bizda investitsiyaviy munosabatlarni tartibga solish, sarmoyadorlar huquqlarini himoya qilish va ularga sharoitlar yaratish bo'yicha yuzlab hujjatlar

8 Ilmiy adabiyotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

bor. Bularning barchasini to'g'ridan-to'g'ri amal qiladigan yagona qonunga birlashtirib, Investitsiya kodeksini qabul qilish vaqti keldi. Bu hujjat investitsiya sohasidagi barcha qoida, kafolat va tartib-taomillarni bir tizimga solib, investitsiyalarni rag'batlantirishga xizmat qiladi" [1]. Mazkur tashabbus investitsiyaviy siyosatning izchil va aniq qo'llanilishini ta'minlab, investorlar uchun barqaror va oldindan bashorat qilinadigan huquqiy muhitni yaratishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiyalar jalb etish tizimini takomillashtirish va qulay investitsiya muhitini shakllantirish uchun quyidagi tavsiyalarni ilgari suramiz:

- O'zbekiston korxonalarining investitsiya faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish maqsadida xorij davlatlar tajribalarini muttasil o'rganish va ulardan unumli foydalanish asosida mavjud tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarni muntazam takomillashtirib borish;
- iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiya kiritgan investorlar uchun qulay investitsion muhit yaratish va soliq, kredit hamda bojxona imtiyozlari tizimini kengaytirish;
- ishlab chiqarish kuchlarini ratsional joylashtirish va xomashyo bazasi bilan bog'liq masalalarni loyiha tashabbuskorlari bilan birgalikda ishlab chiqish;
- texnologik asbob-uskunalar zamonaviylashtirish maqsadida xalqaro ko'rgazma-savdolarda ishtirok etish, resurs tejankor, innovatsion va zamonaviy texnologiyalarni tanlash hamda moliyalashtirish manbalarini aniqlash;
- banklar, investitsiya fondlari, sug'urta va lizing kompaniyalari faoliyatini davlat tomonidan rag'batlantirish orqali ularning investitsiya loyihalarini amalga oshirishdagi ishtirokini kengaytirish;
- investitsiya loyihalarini ishlab chiqishda tashabbuskorlarga tijorat banklari, hududlardagi savdo-sanoat palatasi va boshqa mas'ul idoralar tomonidan amaliy yordam ko'rsatilishini mahalliy hokimliklar tomonidan tashkil etish;
- investitsiya dasturlariga kiritish taklif etilayotgan loyihalar tashabbuskorlarining moliyaviy-iqtisodiy ahvolini mahalliy hokimliklar va tijorat banklari tomonidan chuqur tahlil qilish.

Ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi shundan darak beradiki, iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish ko'p jihatdan zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan qurollanishga bog'liq bo'lib bormoqda. Eng avvalo respublikaning ichki imkoniyatlariga va xorijiy investitsiyalarga tayangan holda, kichik va o'rta quvvatli universal hamda maxsus mashina-uskunalar seriyali ishlab chiqarish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Keyingi yillarda asbob-uskunalar va texnika vositalari narxlarining qimmatlashib borayotgani sababli ko'pchilik firmalar ularni sotib olish imkoniyatiga ega emas. Ishlab chiqarishga mo'ljallangan texnika vositalarining narxlarini arzonlashtirish imkoniyatlarini qidirib topish va bunda birinchi navbatda davlatning ko'magiga tayanish muhimdir. Qimmat turadigan yuqori unumli asbob-uskunalar, texnika va mashinalarni ishlab chiqaruvchi zavodlarning dilerlik tarmoqlari orqali muddatli to'lovga sotish (tovar krediti) amaliyotini keng joriy etish, bunda kreditni qaytarishni texnikaning narxidan kelib chiqib o'rta (3–5 yil) va uzoq (6–10 yil) muddatlarga belgilash yaxshi samara beradi.

Tovar ishlab chiqaruvchilarni texnika vositalari bilan ta'minlashni moliyalashtirishda tijorat banklarining uzoq muddatli va past foiz stavkalaridagi investitsion kreditlarining ahamiyati katta. Texnika vositalarini sotib olish uchun ajratilayotgan kreditlar foiz stavkalarining bir qismini davlat tomonidan qoplab berish orqali imtiyozli foiz stavkalaridagi uzoq muddatli (kamida 6–10 yil) investitsion kreditlar ulushini keskin oshirish korxonalarning texnik-texnologik qurollanish darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, jahon amaliyotidan kelib chiqib, kredit uchun foiz to'lovlarining 30–50 %ini tijorat banklariga davlat budjetidan qoplab berish amaliyotini joriy etish maqsadga muvofiq.

Ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun bino-inshootlar, tomchilatib sug'orish tizimlari, issiqxonalar, go'sht-sut yetishtirish majmualari qurishga investitsiyalar qiymatining bir qismini davlat budjetidan qoplab berish tarmoqni modernizatsiyalash va unumdorligini oshirishga muhim hissa qo'shishi mumkin.

Iqtisodiyot tarmoqlariga xos bo'lgan tavakkalchilik xatarlarining yuqoriligi va firmalarning moliyaviy jihatdan baquvvat emasligi tijorat banklarini ularni kreditlashda ehtiyotkorlik bilan yondashishga majbur etadi. Eng asosiy muammolardan biri — aksariyat korxonalarda kredit olishda talab etiladigan kredit qiymatining 120 %iga teng miqdordagi garov ta'minoti uchun mol-mulk yoki boshqa turdagi vositalarning yetishmasligidir. Fikrimizcha, ishlab chiqarishni moliyalashtirish va kreditlash tizimida davlat ishtirokini har tomonlama kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalar hamda tavsiyalarimiz iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiyalar jalb etishni faollashtirish orqali tarmoqlarni barqaror rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2025-yil 20-avgustdagi tadbirkorlar bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan uchrashuvdagi nutqi. www.prezident.uz.
2. Bodie, Zvi. Investments / Zvi Bodie, Boston University, Alex Kane, University of California, San Diego, Alan J. Marcus, Boston College. P. 8.
3. Богатин Ю.В., Швандар В.А. "Инвестиционный анализ": Учебное пособие для вузов. – М.: Юнити-дана, 2020. – с. 148-149.
4. Butayev J.I. Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda mamlakat investitsion jozibadorligi: nazariya va amaliyot: Monografiya.– T.: "Ilm-ma'rifat" nashriyoti, 2024. – 162 b.
5. Qosimov M.S., *Investitsiya* loyihalar tahlili. *Darslik*.– T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2021.-192 b.
6. Зайналов Ж.Р., Алиева С.С., Рузibaева Н.Х. ва бошқалар (2020); Инвестиция. Дарслик / - Т.: "Iqtisod-Moliya", – 480 б.
7. Zoyirov I.S., Asomxodjayeva Sh.Sh., Yunusova S.B. Investitsiya. Darslik. –T.: "Iqtisod-Moliya", 2019.
8. Ochilov B.B., Hoshimov J.R., Butayev J.I. Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda mamlakat investitsion jozibadorligi: nazariya va amaliyot: Monografiya.– T.: "Ilm-ma'rifat" nashriyoti, 2024. – 162 b.
9. Almatova D. Mintaqalarda investitsiyalar jalb etishning muhim yo'nalishlari. "O'ZIA" - "EVU" 1/2012.
10. Rajabov N. Investitsion muhit jozibadorligini ta'minlash va samarali boshqarish yo'nalishlari. 08.00.13-Menejment (iqtisodiyot fanlari) ixtisosligidan iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2020. -15 b.
11. Mustafaqulov Sh.I. "O'zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish" mavzusidagi doktorlik dissertatsiya ishi (DSc) avtoreferati. Toshkent-2017. -5-6 b.
12. Karimov N.G. Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiyalarni moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish muammolari: 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2007.
13. Dodiev F.O'. Investitsion faoliyatni moliyaviy rag'batlantirish: Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 1998.
14. Yusupov M.S. Jahon amaliyotida qishloq xo'jaligini tartibga solish va qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmlari. Monografiya. -T.: Iqtisodiyot, 2014. -207 b.
15. <https://invest.gov.uz/uz/investor/igoty-i-preferentsii-dlya-predpriyatij-s-uchastiem-inostrannogo-kapitala/>.
16. https://ru.theglobaleconomy.com/rankings/herit_business_freedom/.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so'zlagan nutqi. 21.08.2023 y. www.prezident.uz.
18. Davlyatova G.M. (2023). Investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 3 (05), 17-25. Doi: <https://dx.doi.org/10.5281/zenodo.8158999> T. 3 №5 2023 SJIF 2023:5.971.
19. Norsafarov B. Investitsiya loyihalarini moliyalash samaradorligini oshirishda banklarning o'rni // ORIENSS. 2021. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/investitsiya-loyihalarni-moliyalash-samaradorligini-oshirishda-banklarning-orni>.
20. Azimova F., Yo'ldosheva M., Yo'ldosheva M. (2023). O'zbekistonda xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish to'g'risida. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 1(7), 205–212. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss7-pp205-212>.
21. Доунс Дж., Гудман Дж. Э. Финансово-инвестиционный словарь. 3-е изд. М.:Инфра-М, 2017. - 255с..
22. Жихаревич Б.С., Лимонов Л.Э., Жунда Н.Б. и др. Региональная экономика и пространственное развитие. Учебник в 2-х томах. – М.: Юрайт, 2014.
23. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2024-yil yanvar-dekabr. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi. Toshkent-2025. -128 b.
24. <https://www.heritage.org/index/pages/country-pages/uzbekistan>.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100